



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING**  
**QARORI**

Boysun t., Hayot Abadiy ko‘chasi 1-uy. 190400, tel.: (+99876) 33-5-20-64, boysun\_t@exat.uz, http://baysun.uz

---

2021 - yil 21 - dekabr

237-8-110-Q/21

Boysun tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda  
“O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini  
rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni  
kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli  
hamda viloyat hokimining 2021-yil 20-dekabrda 229-8-0-Q/21-sonli  
qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

Tumanning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini, konsolidatsiyalashgan byudjet mablag‘lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davlat dasturlarini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirish, mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash, shuningdek, ushbu sohada nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli hamda viloyat hokimining 2021-yil 20-dekabrda 229-8-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida:

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-sonli hamda viloyat hokimining 2021-yil 20-dekabrda 229-8-0-Q/21-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori talablaridan kelib chiqib:

a) kelgusi yillar uchun Surxondaryo viloyatining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi (keying o‘rinlarda-Dastur) ishlab chiqarilishida;

viloyat tashkilotlari, idoralar, tuman hokimligi hamda sektor raxbarlari bilan birgalikda 1-aprelga qadar joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurati va ularning joylashuvini, shuningdek, ushbu masalar bo‘yicha keng jamoatchilik fikrini o‘rganishi;

tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, sohalar va tarmoqlar raxbarlari dastlabki manzilli ro‘yxatga kititilgan loyihalar bo‘yicha loyiha (Loyiha oldi) hujjatlarini 1-noyabrga qadar belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazish choralarini ko‘rish va bu borada ularga shaxsiy jabobgarlik yuklash masalariga alohida e‘tibor berilishi;

b) calendar yilining yakuniga qadar kelgusi yillar uchun Dastur tasdiqlanib, unga kiritilgan loyihalar bo‘yicha tanlov (Tender)lar e‘lon qilinishi, Dasturga loyiha (Loyiha oldi) hujjatlari ekspertizadan o‘tkazilmagan loyihalar kiritilishiga yo‘l qo‘ymasligi belgilanganligi ma‘lumot uchunqabul qilinsin.

3. Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman shtabi (keyingi o‘rinda –tuman Shtabi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari (F.Normamtov, Sh.Normo‘minov, D.Xafizov) aloqador tashkilotlar bilan birgalikda:

2022-yil 1-martga qadar Qurilish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan maxsus savolnoma asosida hududlardagi mavjud ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob‘ektlarini xatlovdan o‘tkazish hamda joylarda yangi ob‘ektlarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojni o‘rganish;

Davlat dasturlarini shakllantirish va qurilish-pudrat ishlarini amalga oshirishdan loyihalarni ishga tushirishgacha bo‘lgan jarayonlarni sifatli tashkil etish bo‘yicha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, ularning ijrosi ustidan nazorat tadbirlariga keng jamoatchilikni jalb qilish;

tasdiqlangan loyihalarga o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishlar kiritilmasligi

ustidan qat'iy nazorat o'rnatish choralari ko'rsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Z.O'zbekova) sektor rahbarlari tomonidan tumanda loyihalarning amalga oshirilishi holati yuzasidan har oyda tegishliligicha tuman xalq deputatlari Kengashiga hisobot kiritib borilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida (baysun.uz) e'lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Hokim**



**A.Ch.Jo'rayev**

Бойсун туман ҳокимининг  
2021 йил 21 декабрдаги  
237-8-110-Q/21-сон қарорига  
1-илова

## **Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha tuman shtabining**

### **TARKIBI**

#### **I. Tuman shtabi a'zolari:**

- M.Hayitov - tuman prokurori, tuman shtabi rahbari
- Sh.Normo'minov - tuman hokimning qurilish masalalari bo'yicha  
o'rinbosari
- A.Fozilov - Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo'limmasi boshlig'i
- D.Boboyev - tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i
- B.Akramov - tuman davlat soliq inspeksiyalari boshlig'i
- R.Abdurayimov - Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi  
kurashish  
departamenti tuman bo'limi boshlig'i

#### **II. Tuman shtabi ishchi guruhi:**

- J.Abdullayev - tuman prokurorining (katta) yordamchisi
- S.Ozodov - Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish  
departamenti tuman bo'limi xodimi
- K.Ashurov - tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni  
qisqartirish bo'limi boshlig'i
- T.Jumayev - tuman moliya bo'limi mudiri
- B.Uluqov - tuman g'aznachilik bo'limi boshlig'i
- A.Soibnazarov - tuman qurilish bo'limi boshlig'i  
lavozimi bo'yicha - qurilish sohasida hududiy nazorat  
inspeksiyasining tumanga biriktirilgan xodimi